

**2025-2026-O'QUV YILIDA
UMUMTA'LIM MAKTABLARINING**

9-SINF

O'QUVCHILARI UCHUN

ONA TILI VA ADABIYOT

FANIDAN YAKUNIY ATTESTATSIYASINI

O'TKAZISH BO'YICHA

METODIK TAVSIYA VA MATERIALLAR

2025-2026-O‘QUV YILIDA UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARINING 9-SINF O‘QUVCHILARI UCHUN ONA TILI VA ADABIYOT FANIDAN YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSIYASI TEST TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

Mazkur spetsifikatsiya umumta’lim va ixtisoslashtirilgan maktablarning 9-sinf o‘quvchilarini ona tili va adabiyot fanidan bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini baholashda foydalaniladigan test topshiriqlarining mazmuni, qamrovi, turi, shakli, baholash mezonlari va o‘tkazilish tartibiga qo‘yilgan talablarni belgilaydi.

I. Umumiy tamoyillar

Baholash maqsadi – 9-sinf o‘quvchilarining ona tili va adabiyot fanlaridan bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini amaldagi dasturlarda belgilangan o‘quv maqsadlari asosida kompleks baholash. Mazkur baholash natijalari asosida 9-sinflar uchun yakuniy davlat attestatsiyasida qabul qilinadigan qarorlar asosli (valid) bo‘lishini ta’minlash maqsadida baholashda validlik, ishonchlik, adolat va shaffoflik tamoyillariga rioya qilinishi ta’minlanadi.

II. Me’yoriy asoslar

1. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirining 2008-yil 4-martdagi “Umumiy o‘rta ta’lim oluvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 56-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan, “Umumiy o‘rta ta’lim oluvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasi to‘g‘risidagi nizom”.

2. Ona tili va adabiyot fanlaridan 5–9-sinflar uchun amaldagi o‘quv dasturi.

3. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2026-yil 16-martdagi “2025-2026-o‘quv yilida umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasini tashkil etish va o‘tkazish to‘g‘risida”gi 102-son buyrug‘i.

III. Baholash qamrovi va ajratilgan vaqt

Ona tili va adabiyot fanlaridan o‘quvchilarning bilim darajasini aniqlash bo‘yicha yakuniy davlat attestatsiyasi sinovida jami 10 ta test varianti taqdim etiladi.

Har bir variantning savol va topshiriqlari fan kesimida bo‘lib, umumta’lim maktablarining talaffuz va imlo, punktuatsiya, lingvistik tahlil, matnni tushunish, shuningdek, milliy, jahon adabiyoti hamda adabiyot nazariyasi kabi mazmun sohalarni qamrab olgan. Tavsiyada bilish, qo‘llash va mulohaza qilish kognitiv faoliyatlarga oid topshiriqlar bo‘yicha baholash mezonlari keltirilgan.

Har bir variantda o'quvchiga 10 ta topshiriqli (6 ta ona tili, 4 ta adabiyot) savol beriladi. Topshiriqlarning 3 tasi (2 ta ona tili, 1 ta adabiyot) bilishga, 5 tasi (3 ta ona tili, 2 ta adabiyot) qo'llashga, 2 tasi (1 ta ona tili va 1 ta adabiyot) mulohazaga oid bo'ladi. Yakuniy davlat attestatsiyasi test sinovlari uchun **180 daqiqa** vaqt berilgan.

IV. Kognitiv ko'nikma va qismlar bo'yicha taqsimot

Bilish (B)		Qo'llash (Q)		Mulohaza (M)		Umumiy ball
soni	ball	soni	ball	soni	ball	
Ona tili						
2 ta	5 baldan (10 ball)	3 ta	20 baldan (60 ball)	1 ta	30 ball	100 ball
Adabiyot						
1 ta	10 ball	2 ta	25 baldan (50 ball)	1 ta	40 ball	100 ball

Kognitiv daraja	Izohi	Testlar soni (ta)
Bilish (B)	Bilish darajasidagi, ya'ni reproduktiv topshiriqlar, o'quvchidan fanga doir nazariy ma'lumotlar, atamalar, qoidalar, tushunchalarni eslab qolish, ularning mazmuni, maqsadi va qo'llanishini tushunishni talab qiladi.	3
Qo'llash (Q)	Qo'llash darajasidagi, ya'ni produktiv topshiriqlar, o'quvchidan bilim, tushuncha va jarayonlarni yangi (notanish) kontekstlarda qo'llashni talab qiladi.	5
Mulohaza qilish (M)	Mulohaza darajasidagi, ya'ni faktlar, dalillar, fikrlarni taqqoslash, tahlil qilish, taxmin qilish va xulosa(lar) chiqarish.	2

V. Baholanadigan mazmun soha, bilim, ko'nikma va kompetensiyalar, topshiriq turi, kognitiv jarayon va baholash mezonlari

Mazmun soha	Savol tartib raqami	Konstruktlar	Kognitiv darajasi	Baholash mezoni
Ona tili				
Talaffuz va imlo	1	<i>talaffuz va imlodagi tafovutlarni aniqlay olish</i>	B	5 ball
Punktuatsiya	2	<i>tinish belgilari (so'roq, undov, ko'p nuqta, vergul, tire, ikki nuqta, nuqtali vergul, qavs, qo'shtirnoq) haqidagi izohlarni aniqlay olish</i>	B	5 ball

Leksikologiya	3	<i>so‘z va iboralarning ma‘nosini tushunish va ularni qo‘llay olish</i>	Q	20 ball
Morfologiya	4	<i>matn (gap, so‘z)ni hozirgi o‘zbek adabiy tili morfemik va morfologik me‘yorlari asosida tahlil qilish</i>	Q	20 ball
Sintaksis	5	<i>matnni hozirgi o‘zbek adabiy tili sintaktik me‘yorlari asosida tahlil qilish</i>	Q	20 ball
Matnni tushunish	6	<i>matn mazmuni yuzasidan to‘g‘ri mulohaza yurita olish</i>	M	30 ball
Jami				100 ball
Adabiyot				
Jahon adabiyoti	7	<i>umumiy o‘rta ta‘lim dasturiga kiritilgan jahon adabiyotida muhim o‘rin egallagan mualliflar ijodini bilish va asarlarini tushunish</i>	B	10 ball
Milliy adabiyot	8	<i>umumiy o‘rta ta‘lim dasturiga kiritilgan o‘zbek adabiyoti vakillarining ijod namunalari asosida fikr yurita olish</i>	Q	25 ball
	9	<i>umumiy o‘rta ta‘lim dasturiga kiritilgan o‘zbek adabiyoti vakillarining ijod namunalari asosida fikr yurita olish</i>	Q	25 ball
	10	<i>mumtoz matn mazmunini tahlil qilish</i>	M	40 ball
Jami				100 ball

VI. Ballni bahoga aylantirish tartibi

Ball (%)	Baho	Izohi
0 – 29	“2”	“qoniqarsiz”
30 – 65	“3”	“qoniqarli”
66 – 85	“4”	“yaxshi”
86 – 100	“5”	“a‘lo”

VII. Sinov jarayoniga qo‘yiladigan talablar

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki eslatmalardan foydalanish qat‘iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko‘chirish, yordam so‘rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, dalolatnoma tuzib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

VIII. Tavsiya etiladigan asosiy adabiyotlar

Ona tili

1. 5-sinf. Ona tili darsligi. N.Mahmudov, A.Sobirov, Sh.Sattorov va boshq. Toshkent – 2020.
2. 6-sinf. Ona tili darsligi. I.Azimova, K.Mavlonova, S.Quronov, Sh.Tursun, N.Hakimova, M.Siddiqov. Toshkent – 2022.
3. 7-sinf. Ona tili darsligi. I.Azimova, K.Mavlonova, S.Quronov, Sh.Tursun, N.Hakimova, M.Siddiqov. Toshkent – 2022.
4. 8-sinf. Ona tili darsligi. M.Qodirov, H.Ne'matov, M.Abduraimova, R.Sayfullayeva, B.Mengliyev. Toshkent – 2019.
5. 9-sinf. Ona tili darsligi. Sh.Abduraimov, M.Siddiqov, S.Atayeva, D.Israfilov. Toshkent – 2025.

Adabiyot

1. 5-sinf adabiyot darligi. S.Ahmedov, B.Qosimov, R.Qo'chqorov, Sh.Rizayev. Toshkent – 2020.
2. 6-sinf adabiyot darsligi. Z.Mirzayeva, K.Jalilov Toshkent – 2022.
3. 7-sinf adabiyot darsligi. Z.Mirzayeva, K.Jalilov Toshkent – 2022.
4. 8-sinf adabiyot darsligi. S.Olim, S.Ahmedov, R.Qo'chqorov Toshkent – 2019.
5. 9-sinf adabiyot darsligi. J.Nurmuhammadov, D.Yusupova, O.Olimjanov. Toshkent – 2025.

Ona tili

1-SAVOL

1. (B – 5 ball) Gapda qanday turdagi imloviy xatoliklar yuz berganini aniqlab yozing. *Ko'lmak singari xor bo'lmay degan inson say-harakatdan tinmasin, dangasa bo'lmasin, hayotdan ma'no izlashda davom etsin, bexuda xayollarni ko'p surmasin, shunda urinishlari bexuda ketmaydi.*

Javob:

2. (B – 5 ball) Gapda qanday turdagi imloviy xatoliklar yuz berganini aniqlab yozing. *Egnida guldor jigar rang xalat, durrani dol qo'ygan, oyog'ida qizil bahmal shippak, onasining hayhaylashiga ham boqmasdan hovli supura ketdi.*

Javob:

3. (B – 5 ball) Gapda qanday turdagi imloviy xatoliklar yuz berganini aniqlab yozing. *O'z sog'lig'iga e'tiborli bo'lgan harbir kishi tabiiy maxsulotlardan tayyorlangan taomlarni iste'mol qilishi, texnikadan me'yorda foydalanishi, ko'proq jismoniy harakat bilan shug'illanishi maqsadga muvofiq.*

Javob:

4. (B – 5 ball) Gapda qanday turdagi imloviy xatoliklar yuz berganini aniqlab yozing. *Jonibek bayram oldi kunlar bo'lgani uchun opa-singillariga sovg'a salom oldi: biriga yangi chiqqan ro'mol, boshqasiga duxoba shippak oldi.*

Javob:

5. (B – 5 ball) Gapda qanday turdagi imloviy xatoliklar yuz berganini aniqlab yozing. *Qushlar kabi havoda uchishni o'rgandik. Baliqlar kabi dengizlarda suzushni o'rgandik. Lekin xozirgacha yeryuzida aka ukadek yashashni o'rganmadik.*

Javob:

6. (B – 5 ball) Gapda qanday turdagi imloviy xatoliklar yuz berganini aniqlab yozing. *Odamlarga xayronsan. Ota-onasi tirikligida ikki og‘iz shirin so‘zni tekinga aytmaydida, ular o‘lganidan keyin ming-ming pul sarflab, o‘sha so‘zlarni qabr toshga yozdirib qo‘yadi.*

Javob:

7. (B – 5 ball) Gapda qanday turdagi imloviy xatoliklar yuz berganini aniqlab yozing. *Ko‘mak tilab yoki maslahat so‘rab borganingda yordam berish yoki yo‘l yo‘riq ko‘rsatish o‘rniga “otangdan alo” nasixat qiladigan do‘st – do‘st emas, shunchaki tanish, holos.*

Javob:

8. (B – 5 ball) Gapda qanday turdagi imloviy xatoliklar yuz berganini aniqlab yozing. *Odam o‘z farzandlarining yil sayin o‘sib, komol sari ketayotganini biladiyu, o‘z ota-onasining yil sayin cho‘kib, zavol sari ketayotganini bilmaydi.*

Javob:

9. (B – 5 ball) Gapda qanday turdagi imloviy xatoliklar yuz berganini aniqlab yozing. *“Pul – makrux narsa, odamni buzadi!”*
Kambag‘al shunday deb, o‘zini yupatadi va bora bora qashshoqqa aylanadi.

Javob:

10. (B – 5 ball) Gapda qanday turdagi imloviy xatoliklar yuz berganini aniqlab yozing.

Yaxshiyam-ki, Xudo oftobni bag‘ri keng qilib yaratgan. Bo‘lmasa yer yuzidagi odamlarning illatlarini xar kuni ko‘raverib, allaqachon so‘nib qolgan bo‘larmidi...

Javob:

2-SAVOL

1. (B – 5 ball) Qaysi tinish belgisi bog‘lamasiz kelgan ot kesim bilan ega orasida ishlatiladi?

Javob: _____

2. (B – 5 ball) Ism, otasining ismi (ba‘zan familiyasi ham) qisqartirilganda ularning birinchi harfidan so‘ng qaysi tinish belgisi keladi?

Javob: _____

3. (B – 5 ball) Uyushiq bo‘laklardan so‘ng kelgan umumlashtiruvchi so‘zdan oldin qaysi tinish belgisi ishlatiladi?

Javob: _____

4. (B – 5 ball) Badiiy, ilmiy, musiqa, san‘at asarlari; gazeta-jurnal nomlarida qaysi tinish belgisidan foydalaniladi?

Javob: _____

5. (B – 5 ball) Ajratilgan bo‘lak uyushib, gap oxirida kelsa, undan oldin qaysi tinish belgisi qo‘yiladi?

Javob: _____

6. (B – 5 ball) Uyushiq bo‘laklar orasida, shuningdek, kirish so‘z va kirish birikmalardan so‘ng qaysi tinish belgisi ishlatiladi?

Javob: _____

7. (B – 5 ball) Agar so‘z-gaplar (umuman) kuchli his-hayajon bilan aytilsa, ulardan so‘ng qaysi tinish belgisi ishlatiladi?

Javob: _____

8. (B – 5 ball) So‘zlovchining o‘z fikriga qo‘shimcha munosabatini bildiradigan so‘zlarni ajratish uchun qaysi tinish belgisi ishlatiladi?

Javob: _____

9. (B – 5 ball) So‘roq va undov mazmunini bildirgan gaplarda fikr tugallanmay qolsa, mazkur belgilardan so‘ng qaysi tinish belgisi qo‘yiladi?

Javob: _____

10. (B – 5 ball) Uyushiq bo‘laklar guruh-guruh tarzida ifodalanib, bir guruh so‘zlar boshqa guruh so‘zlardan ajratilganda guruhlar orasiga qaysi tinish belgisi qo‘yiladi?

Javob: _____

3-SAVOL

1. (Q – 20 ball) Iboralarni izohlang, har bir ibora ishtirokida gap tuzing.

a) *qo'l uchida* (10 ball)

Javob:

b) *og'zining tanobi qochgan* (10 ball)

Javob:

2. (Q – 20 ball) Iboralarni izohlang, har bir ibora ishtirokida gap tuzing.

a) *almisoqdan qolgan* (10 ball)

Javob:

b) *andarmon bo'lmoq* (10 ball)

Javob:

3. (Q – 20 ball) Iboralarni izohlang, har bir ibora ishtirokida gap tuzing.

a) *arining iniga cho'p tiqmoq* (10 ball)

Javob:

b) *baland oxurdan yem yeb o'rgangan* (10 ball)

Javob:

4. (Q – 20 ball) Iboralarni izohlang, har bir ibora ishtirokida gap tuzing.

a) *dard ustiga chipqon bo'ldi* (10 ball)

Javob:

b) *eshagidan tushovi qimmat* (10 ball)

Javob:

5. (Q – 20 ball) Iboralarni izohlang, har bir ibora ishtirokida gap tuzing.

a) *eski hammom, eski tos* (10 ball)

Javob:

b) *piyozning po'stidek bo'lib ketmoq* (10 ball)

Javob:

6. (Q – 20 ball) Iboralarni izohlang, har bir ibora ishtirokida gap tuzing.

a) *etak silkimoq* (10 ball)

Javob:

b) *fig'oni falakka chiqmoq* (10 ball)

Javob:

7. (Q – 20 ball) Iboralarni izohlang, har bir ibora ishtirokida gap tuzing.

a) *gadoy topmas* (10 ball)

Javob:

b) *hasratidan chang chiqadi* (10 ball)

Javob:

8. (Q – 20 ball) Iboralarni izohlang, har bir ibora ishtirokida gap tuzing.

a) *paytavasiga qurt tushmoq* (10 ball)

Javob:

b) *gapga to‘n kiygizmoq* (10 ball)

Javob:

9. (Q – 20 ball) Iboralarni izohlang, har bir ibora ishtirokida gap tuzing.

a) *ikki oyog‘ini bir etikka tiqmoq* (10 ball)

Javob:

b) *jazavasi tutmoq* (10 ball)

Javob:

10. (Q – 20 ball) Iboralarni izohlang, har bir ibora ishtirokida gap tuzing.

a) *pixini yorgan* (10 ball)

Javob:

b) *labini tishlamoq* (10 ball)

Javob:

4-SAVOL

1. (Q – 20 ball) Matnda qo‘llangan sodda yasama fe‘llarni morfemik (asos va qo‘shimchaga ajratgan holda) tahlil qiling.

Kampirning nevaralariga hayhaylashi, bolalarning quvnoq qahqahasi, ustiga kichkintoylarni chiqarib olgan Asliddinning jo‘rttaga voyvoylashi ochiq darvoza osha ko‘chaga eshitilib turardi.

Javob:

2. (Q – 20 ball) Matnda qo‘llangan sodda yasama fe‘llarni morfemik (asos va qo‘shimchaga ajratgan holda) tahlil qiling.

Qorani oqlash emas, Oqni qoralamaslik adolatdir.

Adolat haqiqatni aytish va tinglashdan boshlanadi...

Javob:

3. (Q – 20 ball) Matnda qo‘llangan sodda yasama fe‘llarni morfemik (asos va qo‘shimchaga ajratgan holda) tahlil qiling.

Aksiga olib yomg‘ir shivalay boshladi. Avvaliga tomchilab turdi-da, keyin shiddat bilan yog‘ib ketdi.

Javob:

4. (Q – 20 ball) Matnda qo‘llangan sodda yasama fe‘llarni morfemik (asos va qo‘shimchaga ajratgan holda) tahlil qiling.

Qancha ko‘p tilni bilsangiz, shuncha yaxshi. Biroq odam ona tilida tafakkur qiladi, ona tilida tush ko‘radi, ona tilida yig‘laydi... O‘limi oldidan onasini ona tilida yo‘qlaydi...

Javob:

5. (Q – 20 ball) Matnda qo‘llangan sodda yasama fe‘llarni morfemik (asos va qo‘shimchaga ajratgan holda) tahlil qiling.

Olimlar kompyuterni inson miyasidan andoza qilib yaratgan. O‘ylaydi. Hisob-kitob qiladi. Muammoni yechadi. Xulosa chiqaradi. Eslab qoladi...

Javob:

6. (Q – 20 ball) Matnda qo‘llangan sodda yasama fe‘llarni morfemik (asos va qo‘shimchaga ajratgan holda) tahlil qiling.

Ba‘zilar “halol va harom” deganda “yeb-ichish mumkin bo‘lgan va yeb-ichish mumkin bo‘lmagan” narsani angelaydilar...

Bilasiz: non eng tabarruk ne‘mat. Biroq nopok yo‘l bilan topilgan non ham harom! “Noningni halollab ye”, degan gap bejiz aytilmagan.

Javob:

7. (Q – 20 ball) Matnda qo‘llangan sodda yasama fe‘llarni morfemik (asos va qo‘shimchaga ajratgan holda) tahlil qiling.

Kecha zavoddan olgan maoshini qay biriga yetkazishni bilmay yurgan muhandis bugun ishlab chiqarish ochsa-yu, nest-nobud bo‘lib ketayotgan mevalardan sharbat tayyorlab, boyib ketsa, quvonaman.

Javob:

8. (Q – 20 ball) Matnda qo‘llangan sodda yasama fe‘llarni morfemik (asos va qo‘shimchaga ajratgan holda) tahlil qiling.

Osmonda yulduzlar... Navkarlar otining tuyog‘i gursillaydi... Qarasa, yonida Nodirabegim o‘tirganmish...

Xon, shu kuni bo‘lgan hangomani eslab, yana achchiqlanibdi.

Javob:

9. (Q – 20 ball) Matnda qo‘llangan sodda yasama fe‘llarni morfemik (asos va qo‘shimchaga ajratgan holda) tahlil qiling.

Charxpalak nolali g‘iyqillab aylanadi. Kaftida suv ko‘tarib, yuqoriga olib chiqadi... Tepaga chiqib olgan suv ortiga qaytmaydi... Charxpalak ham bunga ranjimaydi.

Javob:

10. (Q – 20 ball) Matnda qo‘llangan sodda yasama fe‘llarni morfemik (asos va qo‘shimchaga ajratgan holda) tahlil qiling.

Qadimda zanjirning quvvatini aniqlash uchun eng ojiz halqani sinab ko‘rishar ekan. Negaki, yuzta halqa mustahkam bo‘lgani bilan bittasi nobop bo‘lsa, zanjir xuddi o‘sha yerdan uziladi...

... Bir-biri bilan zanjirdek bog‘langan, orasidan “ola” chiqmaydigan xalqni yengib bo‘lmaydi.

Javob:

5-SAVOL

1. (Q – 20 ball) Grammatik bog‘lanishlarni aniqlab yozing.

Hikmatli so‘zlar xonani bezab turgan gul singari ko‘ngilni bezaydi.

Javob:

2. (Q – 20 ball) Grammatik bog‘lanishlarni aniqlab yozing.

Umr kitobiga ezgu sahifalarni ko‘proq yozish har bir bandaga nasib etsin.

Javob:

3. (Q – 20 ball) Grammatik bog‘lanishlarni aniqlab yozing.

Men katta tanaffusda charxpalakni tomosha qilishni yaxshi ko‘rardim.

Javob:

4. (Q – 20 ball) Grammatik bog‘lanishlarni aniqlab yozing.

Qadimgi musavvirlar farishtani go‘dak qiyofasida tasvirlagani bejiz emas.

Javob:

5. (Q – 20 ball) Grammatik bog‘lanishlarni aniqlab yozing.

Haqgo'y – qorong'ida chiroq ko'tarib borayotgan odamga o'xshaydi.

Javob:

6. (Q – 20 ball) Grammatik bog'lanishlarni aniqlab yozing.

G'ildirakning yaratilishi dunyodagi eng katta kashfiyot bo'lgan.

Javob:

7. (Q – 20 ball) Grammatik bog'lanishlarni aniqlab yozing.

Bir kuni podsho katta o'rmon chetida chiroyli ohuga duch kelibdi.

Javob:

8. (Q – 20 ball) Grammatik bog'lanishlarni aniqlab yozing.

Nonda inson hayoti uchun zarur barcha moddalar bor ekan.

Javob:

9. (Q – 20 ball) Grammatik bog'lanishlarni aniqlab yozing.

Tun – xastalar va so'qqaboshlarni sinash uchun Tangri tomonidan yuborilgan elchidir.

Javob:

10. (Q – 20 ball) Grammatik bog‘lanishlarni aniqlab yozing.
Odatda odamlar chindan ko‘ra yolg‘onga ko‘proq ishonadi.

Javob:

6-SAVOL

1. (M – 30 ball) Matnni o‘qing. Bolaning buvasi bergan saboq haqida fikr yuriting. Fikrlaringizni hayotiy misollar asosida 60–80 ta so‘z orqali yozing.

Bir bolaning buvasi unga hayot saboqlaridan gapirib shunday dedi:

– Bolaginam, har bir insonning ichida go‘yo ikkita bo‘ri yashaydi. Ular doimo bir-biri bilan kurashadi. Bo‘rilarning biri ochko‘z, badjahl, yolg‘onchi va hasadchi bo‘lsa, ikkinchisi rostgo‘y, mehribon, ochiqko‘ngil va saxiydir.

Buvasining gaplaridan ta’sirlangan nabira so‘radi:

– Buvajon, oxirida qaysi bo‘ri yutib chiqadi?

– Sen qaysi birini ko‘proq boqsang, o‘shanisi yutib chiqadi, – dedi buvasi.

Javob:

2. (M – 30 ball) Matnni o‘qing. Donishmand bergan saboq haqida fikr yuriting. Fikrlaringizni hayotiy misollar asosida 60–80 ta so‘z orqali yozing.

Qadimda ikki aka-uka bo‘lgan ekan. Ikkalasi harchand uringani bilan ishi yurishmas, omadi chopmas ekan. Kunlardan birida aka-ukalar donishmand huzuriga borib, maslahat so‘rabdi:

– Shuncha harakat qilsak ham birimiz ikki bo‘lmaydi. Nima qilaylik?

Donishmand aytibdi:

– Ikkovlaring inoqmisan? Faqat to‘g‘risini gapir!

Aka-ukalar noahil ekanini tan olibdi.

– Ey nodon! – debdi donishmand. – Ikkisi bir bo‘lmaganning qanday qilib biri ikki bo‘lsin?

Javob:

3. (M – 30 ball) Matnni o‘qing. Unda berilgan saboq haqida fikr yuriting.
Fikrlaringizni hayotiy misollar asosida 60–80 ta so‘z orqali yozing.

Bahorda dehqonning yumushi ko‘payadi. Yerga omoch soladi. Ko‘chat qadaydi. Nihol o‘tqazadi. Sug‘oradi, ozuqa beradi... Vaqtida shudgor qilmasa, ekkani unmaydi. Vaqtida sug‘ormasa, ko‘chati qurib qoladi. Donni nobop yerga sepsa, kuzda och qoladi...

Inson umri ham shunday. Yoshlikda yo‘l qo‘ygan xatosi, bosgan nojo‘ya qadami, bilib-bilmay qilgan gunohi yoshi ulg‘ayganida achchiq “mevasi”ni berishi hech gapmas. ... Dehqon-ku, bu bahorda qilgan xatosini kelgusi bahorda tuzatishi mumkin. Insonga esa yoshlik bir marta beriladi.

Javob:

4. (M – 30 ball) Matnni o‘qing. Unda berilgan saboq haqida fikr yuriting.
Fikrlaringizni hayotiy misollar asosida 60–80 ta so‘z orqali yozing.

6. (M – 30 ball) Matnni o‘qing. Unda berilgan saboq haqida fikr yuriting.

Fikrlaringizni hayotiy misollar asosida 60–80 ta so‘z orqali yozing.

Odam hamma narsaga to‘yishi mumkin. Boylikka... Amalga... Shon-shuhratga... Xudoning o‘zi kechirsin-ku, hatto... hayotga ham... Qarib churiganida “Omonatingni ola qol, Yaratgan Egam” deydiganlar chin dildan gapiradi...

Odam hamma narsaga to‘yishi mumkin. Faqat bir narsaga – Mehrga to‘ymaydi. Bu masalada shoh-u gado barobar.

Holbuki, dunyoda bundan arzon narsa yo‘q. Bir og‘iz shirin So‘z, bir chimdim Mehr kimni o‘ldiribdi! Biz esa shuni ham bir-birimizdan ayaymiz...

Javob:

7. (M – 30 ball) Matnni o‘qing. Unda berilgan saboq haqida fikr yuriting.

Fikrlaringizni hayotiy misollar asosida 60–80 ta so‘z orqali yozing.

O‘ng qo‘ling berganini chap qo‘ling bilmasin, degan gap bor. Birovga yaxshilik qilib, javobini kutish – tamagirlik.

Shunaqa-ku... Boshiga og‘ir kun tushganida yonida turgan, ko‘maklashgan, dardiga hamdard bo‘lgan odamlaring sening boshingga sinovli kunlar tushganda yaqiningga yo‘lamasa, og‘ir botmay iloj yo‘q. Qiziq, shunday pallada, ko‘pincha, sendan biror manfaat ko‘rmagan, hatto yetti uxlab tushingga kirmagan odamlar yoningga yetib kelib, suyanchiq bo‘ladi.

... Dunyoning ishlarini tushunish qiyin...

Javob:

8. (M – 30 ball) Matnni o‘qing. Unda berilgan saboq haqida fikr yuriting.
Fikrlaringizni hayotiy misollar asosida 60–80 ta so‘z orqali yozing.

Haqgo‘y qorong‘ida chiroq ko‘tarib borayotgan odamga o‘xshaydi. Uning chirog‘i olamni munavvar qilmasligi mumkin. Biroq dillarga dalda beradi, umid uyg‘otadi... Haqgo‘y olis-yaqindan ko‘rinib turishi shundan.

Afsuski, chiroq ko‘targan odam ko‘p qoqiladi...

Javob:

9. (M – 30 ball) Matnni o‘qing. Unda berilgan saboq haqida fikr yuriting.
Fikrlaringizni hayotiy misollar asosida 60–80 ta so‘z orqali yozing.

Katta yo‘l bo‘yida daraxt o‘sardi... Ittifoqo uning tagiga bir yo‘lovchi keldi. Kun issiq, yo‘lovchi charchagan edi. Daraxt soyasida o‘tirib dam oldi...

Yo‘lovchi ochiqqan edi. Qarasa, daraxtda mevalar pishib yotibdi. U daraxtga chiqishga erindi: tosh otdi. Mevalar duv to‘kildi. Yo‘lovchi to‘ygunicha yedi...

Manzil olis edi. Yo‘lovchi daraxt shoxini sindirib, tayoq yasadi...

So‘ng yo‘liga ketdi...

Daraxt boshqa yo‘lovchini kuta boshladi...

Bu daraxtning nomi – Yaxshilik edi...

Javob:

10. (M – 30 ball) Matnni o‘qing. Unda berilgan saboq haqida fikr yuriting.

Fikrlaringizni hayotiy misollar asosida 60–80 ta so‘z orqali yozing.

Gulshan go‘zal edi. Gullar turfa xil edi. Ayniqsa, bittasi... Husni shu qadar o‘tkir, hidi shu qadar anvohi ediki... Gullarning biri unga havas bilan, biri hasad bilan qarardi...

Antiqqa gul “kamtarga – kamol” degan aqidaga amal qilar, boshqalardek o‘zini ko‘z-ko‘z qilmas, bir chekkada boshini quyi solib turardi...

Kunlarning birida bog‘bon gulzor oraladi. Hamma gullar “manaman” deb turibdi. Antiqqa gulning esa boshi egik...

Bog‘bon uni so‘lib qolgan gumon qildi-yu, sug‘urib tashladi. Gulzor antiqa guldand judo bo‘ldi...

U kamtar edi.

Bog‘bon esa nodon edi...

Javob:

Adabiyot

7-SAVOL

1. (B –10 ball) Ushbu parcha qaysi asardan olingan? Asar va uning muallifi haqida qisqacha ma'lumot yozing. (20 – 30 ta so'z)

...U butun og'irligini bir oyog'iga solib turib, soatini oldi, soat to'rt edi. So'nggi ikki haftada u hisobni yo'qotib qo'ydi: iyulning oxiri yoki avgustning boshlari bo'lgani sababli quyosh shimoli-g'arbda bo'lishi kerak edi. U janub tomon qaradi. Mana shu ko'rimsiz tepalik orqasida, allaqayerdadir, Katta ayiq ko'li bor, xuddi o'sha tomonda Kanada sahrosidan mudhish Shimoliy qutb doirasi o'tadi, deb o'ylab qo'ydi...

Javob:

2. (B –10 ball) Ushbu parcha qaysi asardan olingan? Asar va uning muallifi haqida qisqacha ma'lumot yozing. (20 – 30 ta so'z)

...Ammo u qopqonga ilinib, g'arib bo'lib qolganida galasini yo'qlab uvullagan, o'shanda birontayam bo'ri nido bermagan edi. Shu sababliyam, endi uvullamadi.

Emishki, sher kuch-quvvatdan qolsa, burgut erkidan ajrasa, kaptar juftidan ayrilsa, yuragi yorilib o'lar ekan. Bu yirtqichning yuragi birvarakayiga uchta musibatni ko'tara olarmikin? U ham kuch-quvvatidan, ham erkidan, ham juftidan ayrildi. Ertalab qaragam, u hamon dam olayotganday osoyishtagina yotibdi. Ammo... jonsiz yotibdi...

Javob:

3. (B –10 ball) Ushbu parcha qaysi asardan olingan? Asar va uning muallifi haqida qisqacha ma'lumot yozing. (20 – 30 ta so'z)

...U bortga yonboshladi, baliqning og'irligini o'ng qo'lga o'tkazdi va uxlab qoldi.

Bu safar tushiga arslonlar emas, sakkiz yoki o'n milga cho'zilib ketgan dengiz cho'chqalarining hududsiz to'dalari kirib chiqdi. Hozir hirs fasliga kirganlaridan, ular havoga baland sakrashar, keyin o'zlari chiqib kelgan suv o'yig'iga sho'ng'ishar edi.

Keyin tushida ko'rsa, qishloqda o'z karavotida yotibdi. Kulbasida shimoldan esgan shamol g'uvullar emish....

Javob:

4. (B –10 ball) Ushbu parcha qaysi asardan olingan? Asar va uning muallifi haqida qisqacha ma'lumot yozing. (20 – 30 ta so'z)

... – Bu, muhtaram afandim, kulgi bo'lsin uchun yonib turgan papirosini kuchukning tumshug'iga tutdi, kuchuk ham ahmoq emas, g'arch etib tishlab oldi... Bu odamning o'zi tentak ekan, muhtaram afandim.

– Yolg'on aytasan, qiyshiq! Ko'rmaganingdan keyin nimaga yolg'on gapirasan? Janoblari aqlli odamlar, kim yolg'on gapirganini, kim Xudo oldida turgandek rost aytganini – hammasini biladilar... Agarda men yolg'on gapirgan bo'lsam, sud hukm qilsin... Hozir hamma barobar... Mening birodarim jandarmada ishlaydi. Agar bilgingiz kelsa...

Javob:

5. (B –10 ball) Ushbu parcha qaysi asardan olingan? Asar va uning muallifi haqida qisqacha ma'lumot yozing. (20 – 30 ta so'z)

... Kema jamoasidagi beshta mohir va tajribali matros juda inoq va hamjihat yashar edilar. Bu kishilar mana shu bilan to'rtinchi ov mavsumida birga edilar. Matroslarning hammasi ham Kaliforniya shtatidan bo'lib, bir-birlari bilan ko'pdan beri tanish edilar.

Kemada faqat bir kishi amerikalik emas edi. "Piligrim" da kok vazifasini o'tovchi Negro degan kishi Portugaliyada tug'ilgan bo'lsa-da, lekin u ham inglizchani yaxshi bilar edi...

Javob:

6. (B –10 ball) Ushbu parcha qaysi asardan olingan? Asar va uning muallifi haqida qisqacha ma'lumot yozing. (20 – 30 ta so'z)

... – Ko'z yoshi nima ekanidan mutlaqo bexabar edim. Chunki bu saroyning eshiklari g'am-alam uchun taqa-taq yopiq edi. Kunni do'stlarim davrasida o'yin-kulgi bilan o'tkazardim, kechqurunlari esa muhtasham Tanobiy Uyda raqs tushardim. Bog'ni baland devorlar o'rab turardi; uning ortida nimalar borligini so'rash esa xayolimga ham kelmasdi.

Atrofimdagi narsalar shunday go'zal, shunday go'zal edi-ki!..

Javob:

7. (B –10 ball) Ushbu parcha qaysi asardan olingan? Asar va uning muallifi haqida qisqacha ma'lumot yozing. (20 – 30 ta so'z)

Qizcha dunyoga kelishi oilaning boshiga yog'gan la'nat bo'lganini bolaligidanoq sezgan edi. Shuning uchun odamlardan o'zini chetga olib, doim yolg'izlikka intilar edi. Hamma uni birdan esdan chiqarib qo'ya qolsa, unga ancha yengil bo'lardi, chog'i. Biroq o'z musibatini kim ham esdan chiqara oladi? Ota-onasi shu haqda o'ylagani-o'ylagan. Ayniqsa, onasi hammadan ko'proq iztirob chekardi...

Javob:

8. (B –10 ball) Ushbu parcha qaysi asardan olingan? Asar va uning muallifi haqida qisqacha ma'lumot yozing. (20 – 30 ta so'z)

... Yana yuzlab umrlar esa hayot mazmuni – komillik yo'lidagi izlanishlarga sarflanadi; bizning har birimizning vazifamiz – botinimizda komillikka xos fazilatlarni tarbiyalash va ayni paytda turish-turmushimizni, xatti-harakatlarimizni ham shu maqsadga uyg'unlashtirib bormoqdan iborat. Tiriklikning barcha bosqichida bitta qonun ustuvor: keyingi olamga biz shu yerda – bu olamda orttirgan ilmimiz vositasidagina kirib bora olamiz...

Javob:

9. (B –10 ball) Ushbu parcha qaysi asardan olingan? Asar va uning muallifi haqida qisqacha ma'lumot yozing. (20 – 30 ta so'z)

... So'lg'in o't-o'lan-u, rangpar gullar ichida g'uj bo'lib olishgan bolalar ko'kka tikilishardi – quyosh qayonga berkingan bo'lishi mumkin? Ezib yomg'ir yog'ardi. U uzluksiz yetti yil to'xtamay yog'ar, ming kunlab erta-yu kech tinmay shovqin bilan, do'mbira chalgandek billur tomchilari jaranglab, daryodek mavj urib, o'zidan ming xil

sohil-u dengiz tuzib yog'averardi. Sellaridan minglab o'rmonlar cho'kib, tag'in suv ostidan unib chiqaverardi...

Javob:

10. (B –10 ball) Ushbu parcha qaysi asardan olingan? Asar va uning muallifi haqida qisqacha ma'lumot yozing. (20 – 30 ta so'z)

... – Qo'rqamanki, shunday qilishga to'g'ri keladi. Men odatdagi robberingizni o'ynayolmay qolmang, deb karta ola kelganman, chunki biz to'rt kishimiz. Ammo ko'rib turibmanki, dushman juda jiddiy tayyorlanganga o'xshaydi, chiroqni yoniq qoldirish xatarli bo'lar edi. Bundan tashqari, bir-birimiz bilan joylarimizni almashtirishimiz kerak. Ular dovyurak odamlar, garchand biz ularga qo'qqisdan hujum qilsak-da, agar ehtiyot bo'lmasak, ular bizga shikast yetkazishlari mumkin...

Javob:

Adabiyot

8-SAVOL

1. (Q – 25 ball) Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” asaridan keltirilgan ushbu parcha haqida o'z fikringizni 40 – 50 ta so'z orqali ifodalang.

...Malika Bahodirning eshikka yana xavotir bilan ko'z tashlab qo'yganini ko'rdi-yu, kinoyaomuz iljaydi: “Bu nevaram bo'shroq, ayg'oqchisi ham ko'p ekan, sir berib qo'ysa, juvonmarg bo'ladi, men ham niyatimga yetolmayman”, dedi o'zicha va ko'nglidagi qaltis niyatni unga bildirmay gapni boshqa yoqqa burdi:

– Bizga shunchalik sodiq ko'ringan odamlar hozir dushmanlarimizga xizmat qilyapti-ya! E, bevafo dunyo! Malikdod Koroniy ham, oshpazlar ham hammasi sotilgan! Lekin sen... dushmanlar bilan til uchida murosa qil-u, dilingni otangga sodiq tut!

– Hali ham shunday, buvijon! – pichirlab dedi Bahodir.

Javob:

2. (Q – 25 ball) Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” asaridan keltirilgan ushbu parcha haqida o‘z fikringizni 40 – 50 ta so‘z orqali ifodalang.

...Munshi gilam ustiga cho‘kka tushib, juzdonni tizzasiga qo‘ydi, qog‘ozni kafti bilan tekislab, yozishga tayyorlandi.

Bobur badiha ohangida gapirdi:

–Berdi senga Sind-u Hind-u mulki bisyor.

Issiqlig‘iga gar senda yo‘qdur toqat,

Sovuq yuzin ko‘ray desang, G‘azni bor.

Mushoiraning nozik qoidalariga moslab birpasda yaratilgan bu badiha Hindubekning zavqini keltirdi... Bobur otgan o‘qining nishonga tegganini shu zavqli kulgidan sezdi-yu, yengil bir so‘lish olib, munshiga buyurdi.

– Badihani uch nusxa ko‘chiring. Bir nusxasini Xo‘ja Kalonbekning ketidan jo‘natsinlar. Hindubek, bir nusxasini siz olib, Kalonbekning baytini o‘qigan bek-u navkarlarga bering. Ko‘rsinlar-chi, mushoirada kim g‘olib?..

Javob:

3. (Q – 25 ball) Rahmat Fayziyning “Hazrati inson” romanidan keltirilgan ushbu parcha haqida o‘z fikringizni 40 – 50 ta so‘z orqali ifodalang.

... – Juda yaxshi o‘ylabsiz, ota. Kennoyimlar ham shu yerdamilar?

– Ishi chiqib qoldi. O‘zim kelaverdim.

– O‘g‘il bolami yo qizcha olmoqchimisiz?

– Baribir.

– Yoshroq bo‘lsinmi yo eslikrog‘imi?

– Baribir, qizim.

– Qaysi millat bolasi bo'lgani ma'qul?

Mahkam akaning a'zoyi badani titrab ketdi. Rangi oqardi...

– Qizim, – dedi zo'rg'a o'zini bosib Mahkam aka, – men mol bozoriga kelganim yo'q. Tushundingizmi?

– Axir, otaxon...

– Axir-paxiri yo'q! Indamasam, oriqlik-semizmi, kemshikmi-puchugmi, qoramisariqlikmi, deb so'raydiganga o'xshaysiz?

– Voy, otaxon, millatini so'rasam siz...

– Hamma millat bolasi bir! Hammasini Xudo yaratgan! Hammasi odam bolasi! Tushundingizmi?

– Kechirasiz, – juvon Mahkam akaning vajohatidan qo'rqib ketganidan qo'lidagi daftar qaltirardi.

– Odam bolasini oq-qoraga ajratmang. Dunyoda bitta shunaqa ablah chiqib, ne kunlarni sovotti odamlar boshiga. Hali jazosini tortadi. Bularning ko'z yoshi ko'r qiladi...

Javob:

4. (Q – 25 ball) Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” asaridan keltirilgan ushbu parcha haqida o'z fikringizni 40 – 50 ta so'z orqali ifodalang.

... Xo'sh-po'shi yo'q, – dedi qizishib qolg'an Kalonshoh, – biravning ustiga ayb qo'yish uchun, shar'an shohidlar lozim, da'voni isbot qilish kerak... Xax-xax-xax, sen falonchi gunohkor bilan do'st eding, deb kishini ayblash. Masalan, ushbu da'voni qilg'uchi o'zingiz ham ularning maslahati ustida bo'lmag'ansiz; faqat shundaymikin, degan mulohazada so'zlaysiz, holbuki, sizning so'zingizning shar'an to'rt pullik qiymati yo'q, uka...

Kalonshoh juda qizishib ketdi, “shar'an so'zingizning to'rt pullik qiymati yo'q, uka” tahqiri bilan mulla Abdurahmon ham bo'zarib oldi.

– Menim so‘zim bir mulohaza, taqsir, mulohaza shar‘an isbotka buyurilmag‘an. Hokazo, o‘zingiz aytkancha, go‘yo masnad uchun jon otib yurg‘an Sultonalining zohir harakatiga ham ishonib bo‘lmaydir...

Javob:

5. (Q – 25 ball) Usmon Nosirning “Nil va Rim” she‘ridan keltirilgan ushbu parcha haqida o‘z fikringizni 40 – 50 ta so‘z orqali ifodalang.

*To Minisdan Ramzesgacha, Ramzesdan nari
“Malika qiz” – Kleopatra hukmron davri.
Undan tortib... yana uzoq, yana ko‘p yillar
Xarsang bilan yotqizilgan necha ming yo‘llar.
Ko‘zyoshidan, dil toshidan qurilgan haykal
Mag‘rur turar, mag‘rur boqar; hech biron mahal
Na odamdan, na zamondan qo‘rqmas asti u.
G‘azabini yutib o‘lgan qullar dasti bu!
Qullar... (Menman u qullarning o‘lmas avlodi,
Mana menman, u qullarning hech so‘nmas yodi,
Mana menman, falaklarga lov-lov o‘t qo‘yib,
Otalarimning boshidan poydevor uyib,
Ozodligim obidasin qurgan insonman!
O‘sha jonman, o‘sha qonman va o‘sha shonman!)*

Javob:

6. (Q – 25 ball) Usmon Nosirning “Nil va Rim” she’ridan keltirilgan ushbu parcha haqida o‘z fikringizni 40 – 50 ta so‘z orqali ifodalang.

*Rim ustida shamsiyadek tumanli osmon,
Katta sirkka sig‘ishmasdan qaynar olomon:
“Odam bilan hayvon o‘yin ko‘rsatar emish...”
(Bunday qiliq bizning uchun qandayin erish!..)
Tishlarini irjaytirib bo‘kirgan yo‘lbars
To‘rt tarafga tashlanadi, talpinib lars-lars.
Och ko‘zlari qonga to‘lgan, sakrab o‘ynaydi...
O, bechora, qoch! U seni tirik qo‘ymaydi!
Ana! Ana, tirnog‘ini nishlab kelar u,
Changal soldi! Xalq o‘rnidan birdan turdi duv...
Chapak chaldi. “Ey, ahmoq Rim, sevinma qonga!
Bundan boshqa xo‘rlik bormi, axir, insonga?” –
Dedi, parcha-parcha bo‘lgan gladiator.
Rim – o‘yindan o‘lim kutgan jinni teatr!*

Javob:

7. (Q – 25 ball) Maqsud Shayxzodaning “Jaloliddin Manguberdi” dramasidan keltirilgan ushbu parcha haqida o‘z fikringizni 40 – 50 ta so‘z orqali ifodalang.

Jaloliddin: *(qog‘ozga qarab)*
*“Podsho Badriddin shohi barru bahr,
Sultoni Samarqand, Movarounnahr”.*
(Sultonbegimga)

*Eringga shohlikni so‘z bergan Chingiz,
Bu ham xo‘jasiga ishlagan shaksiz.
Yurtiga sarlashkar bo‘lishdan ko‘ra –
Shohlik nomi bilan mo‘g‘ulga to‘ra...
“G‘alati bir uzuk – o‘zi ham tumor”.
Emish: “O‘limlarga qarshi madadkor”,
Endi shu uzukda ochildi tilsim,
Oh, yomon dahshatdir g‘azabim, hirsim!
Uning bir boshiga yuz marta o‘lim!..
Ering bir sotqindur, bechora singlim!
Sultonbegim:
Voy, endi tushundim, so‘ylardi doim,
Samarqand taxtida bo‘lurmiz qoim,
Bosh egmay hech kimga mustaqil, erkin!*

Javob:

8. (Q – 25 ball) Maqsud Shayxzodaning “Jaloliddin Manguberdi” dramasi-
dan keltirilgan ushbu parcha haqida o‘z fikringizni 40 – 50 ta so‘z orqali ifodalang.

Yaroqbek: *Otam qonin unutmashman hech!*

(Xanjarni o‘qtaladi. Shu choqda devona chol otilib kiradi. Yaroqbekning orqasidan pichoq sanchadi...)

Chol: *Shukrkim, madadkor qolmaptikan kech!*

Eshiting avvalo, o‘ldiring keyin.

Ha! Men-ku, qotilman, ammo bu xoin...

Umrinda ilk odam o‘ldirishim shu.

Ammo najot topdi bir el, yoshulli!

G‘orimda poyladim men yashirincha –

Bitta ko‘r no‘yon-u shu mal‘un bacha

*Ozurda ekanlar Temur Malikdan,
Sizga qasd qilgali bo'lishdi bir tan.
Xanjar o'qtaganga qadamim nishtar,
U yog'i ma'lumdir, hikoyat etar!..*

Javob:

9. (Q – 25 ball) Odil Yoqubovning “Ulug‘bek xazinasi” romanidan keltirilgan ushbu parcha haqida o‘z fikringizni 40 – 50 ta so‘z orqali ifodalang.

... Ali Qushchi hayrat bilan ustodiga qaradi.

– Bularni ne qilamen, vallomat?

– Senga boylik kerak emas. Buni bilamen. Ammo bu dur-u javohirlarni boya men aytgan yaxshi tilak yo'lida ishlatusen?..

... – Men sendan abadulabad rozimen, – dedi. – Agar-chi diydor ko'rishmoq nasib etmas, rozi bo'lg'aysen, o'g'lim.

U bu kun ikkinchi bor Ali Qushchiga “o'g'lim”, dedi.

– Faqir ham rozimen, ustod, toabad rozimen...

Javob:

10. (Q – 25 ball) Odil Yoqubovning “Ulug‘bek xazinası” romanidan keltirilgan ushbu parcha haqida o‘z fikringizni 40 – 50 ta so‘z orqali ifodalang.

... – Ota so‘zin amri vojib, deb bilursenmi, yo‘qmi – ixtiyor senda. Va lekin so‘nggi nasihatimni eshit, xohla, o‘z padaringni qatl et, xohla, Movarounnahr sarhadidan haydab, darbadar qil – boz ixtiyor sendadur. Lekin yolg‘iz tilagim: ilm yo‘lida otang qilgan ishlarga uning shogird va ustodlariga tegmagaysen. Tegsang... ota qarg‘ishiga uchrab toadbad badnom bo‘lursen!.. Ota rozi – Xudo rozi, yodingda bo‘lsin: alqasosu minalhaq! Hech bir yomonlik intiqomsiz qolmaydur! Senga aytadurg‘on boshqa so‘zim yo‘q!..

Javob:

3. (Q – 25 ball) Odil Yoqubovning “Yaxshilik” hikoyasidan keltirilgan ushbu parcha haqida o‘z fikringizni 40 – 50 ta so‘z orqali ifodalang.

... *Pochtachi eshagini to‘xtatdi. Xuddi soqolini silamoqchi bo‘lganday qizil tayoqqa o‘xshagan qo‘lini qimirlatib qo‘ydi, so‘ng yuzini chetga burib po‘ng‘illadi:*

– *Qaysi xatni aytasiz?*

– *Xat-da, xat. O‘g‘limdan kelgan xatni aytaman, bolam!*

Pochtachi boshini ko‘tarmasdan: – Nima qilay, – dedi sekin. – Xat o‘g‘lingizdan emas, gospitalning nachalnigidan ekan, xolajon. Biz uni... qishloq kengashining raisiga topshirdik...

Kelinoyim yalt etib menga qaradi. Uning ko‘zlarida shunday bir qo‘rquv, shunday bir dahshat bor ediki, men hech qachon o‘rni to‘lmaydigan yomon bir narsa ro‘y berganini his qildim-u, o‘rnimda qoqqan qoziqday qotib qoldim...

Javob:

4. (Q – 25 ball) O‘tkir Hoshimovning “Eng og‘ir gunoh” hikoyasidan keltirilgan ushbu parcha haqida o‘z fikringizni 40 – 50 ta so‘z orqali ifodalang.

... – *Tolqon qilmadingmi? – dedi dadam bir bo‘lak lavlagini puflab-puflab yer ekan.*

Qo‘rquv ichida oyimga qaradim.

– *Qiluvdim, – dedi u sekin.*

– *Qolmadimi?*

- O‘g‘ir o‘lgur ag‘darilib ketdi, – dedi onam aybdor ohangda.
- Nima? – dadam lavlagi bo‘lagini qo‘lida tutganча jahl bilan onamga qaradi.
- To‘kilib ketdi, – dedi oyim boshini quyi solib...
- Kap-katta xotin uvol qilib o‘tirsang. Bilib qo‘y, non ko‘r qiladi seni! – U shaxt bilan o‘rnidan turdi-da, bir hatlab supadan tushdi. Tez-tez yurib ko‘chaga chiqib ketdi.

Men oyimga qaradim. U bo‘lsa hamon bosh ko‘tarmay o‘tirar, ko‘zlarida iztirob bor edi...

Javob:

5. (Q – 25 ball) Sharof Boshbekovning “Temir xotin” komediyasidan keltirilgan ushbu parcha haqida o‘z fikringizni 40 – 50 ta so‘z orqali ifodalang.

Qo‘chqor: — Shu, Qumri, o‘qigan yaxshi ekan-da, mana, masalan, men ko‘p o‘qiyman.

Qumri: — (Kulimsirab.) Rostan-a? Qachondan beri?

Qo‘chqor: — Bilasanmi, dunyoda tirik jon borki, o‘zidan elektromagnit to‘lqinlari tarqatadi. Odam ham tarqatadi. Sen bilan men ham. Bola-chaqamiz ham.

Qumri: — (Jilmayib.) Xo‘sh, keyin-chi?

Qo‘chqor: — Nima keyin? Tarqatadi, tamom.

Qumri: — Ha, ko‘p o‘qibsiz. Yaxshi ekan, qisqagina.

Qo‘chqor: — Elektromagnit to‘lqinlarini-ku tarqatyapmiz, lekin uni qabul qiladigan boshqa apparat ham bo‘lishi kerak, Qumri. Bo‘lmasa nima foydasi bor, tarqatsak tarqatib yotaveramiz-da. O‘sha apparat... Nomi nima edi?..

Javob:

6. (Q – 25 ball) Asqad Muxtorning “Chinor” romanidan keltirilgan ushbu parcha haqida o‘z fikringizni 40 – 50 ta so‘z orqali ifodalang.

Tabiat sokin, ufq jimirlaydi, tikkada tinmay chuldiragan to‘rg‘ay tovushi jaziramani sal kesganday bo‘ladi.

- *Cho‘pon ham bo‘lganmisiz, bobo? – yana ingichka ovozi eshitildi Azimjonning.*
- *Ha, chorva ham boqqanmiz, paxta ham ekkanmiz, qilich ham chopganmiz, bolam.*
- *Chinorning gapirganini...*
- *Ha, el og‘zidan eshitgan bo‘lsang, unisi ham rost bo‘lsa, bordir... Mana, yerning ham nafasini, yurak urishini eshitsa bo‘ladi...*
- *... – Agar men yozuvchi bo‘lsam, butun umrimni bittagina kitob yozishga sarflardim.*
- *U qanday kitob, bobo?*
- *Xayrlashuv kitobi. Tabiat bilan, uning husni, ko‘rki, ulug‘vorligi bilan, barglar, gullar, to‘rg‘aylar, chashmalar, yulduzlar, sahrolar, jamiki go‘zalliklar bilan to‘yib, xo‘rsinib, yig‘lab xayrlashuv kitobi. Shunday kitob yo‘q, bolam. Shunday kitobni yozgan odam bearmon ketardi...*

Javob:

7. (Q – 25 ball) Shukur Xolmirzayevning “Ot egasi” hikoyasidan keltirilgan ushbu parcha haqida o‘z fikringizni 40 – 50 ta so‘z orqali ifodalang.

... So‘ng kechgacha shu yerda o‘tirdi, otasi va bola-chaqasining ham ruhiga tilovat qilgan bo‘ldi. Keyin uyga qaytib, eshiklarni qulfladi-da, soyga tushib bordi.

Uning yoqasi bilan yurib, qosh qarayganda, suv oqib chiqayotgan tog‘ betiga yetdi... Shunda Inod bosh olib ketib, qayerda ham yashashi mumkinligi haqida o‘ylab qoldi.

Inod bir necha oydan keyin Egamberdining o‘shandagi niyati nima ekanligini payqadi. Lekin bu vaqtda uning ko‘nglida qolgan ikki sevgilisi – qishlog‘i-yu maktabi yana tomir otib ulgurgan edi.

Javob:

8. (Q – 25 ball) Shukur Xolmirzayevning “Omon ovchining o‘limi” hikoyasidan keltirilgan ushbu parcha haqida o‘z fikringizni 40 – 50 ta so‘z orqali ifodalang.

...Bu endi qishloq emas, satti chordevor edi: tomlari buzilgan, yog‘och to‘sinlari ham olib ketilgan. Tez orada u yerda kalamush va sichqonlar ko‘paydi. Keyin esa ularning kushandalari boyqushlar ko‘paydi: ba‘zisi kunduz kunlari ham devor kentiklarida hurpayib o‘tirar edi.

Omon negadir bularni sira otmas, aksincha, ularni uzoq-uzoq tomosha qilishni yaxshi ko‘rar, ba‘zan kechalari tashqariga chiqib boyqush sayrashini eshitganda – yurak seskanishi qayda! – parishonxotir bo‘lib tek qolardi. Shunda u bu tun qushlarining mungli hamda nimasi bilandir tunga o‘xshab ketadigan unlariga allaqanday singishar, go‘yo o‘zi ham shu tunga, shu mungli unga, boyqushga aylanib qolardi.

Javob:

3. (M – 40 ball) Alisher Navoiyning ushbu ruboiysidan olgan xulosalaringizni bugungi kun bilan bog‘lab, hayotiy misollar asosida (60 – 80 ta so‘z) ifodalang.

*Kim ko‘rdi ekin jahonda oyo xushluq,
To bir kishi aylagay tamanno xushluq?
Yuz yilcha agar bir o‘lsa paydo xushluq,
Omodadur yonida yuz noxushluq.*

Javob:

4. (M – 40 ball) Alisher Navoiyning ushbu ruboiysidan olgan xulosalaringizni bugungi kun bilan bog‘lab, hayotiy misollar asosida (60 – 80 ta so‘z) ifodalang.

*O‘lsam, yasamang munda mazorimni mening,
Yuklab, eliting jismi firog‘imni mening.
O‘tru chiqarib ahli diyorimni mening,
Ko‘yida qo‘yung tani nizorimni mening.*

Javob:

5. (M – 40 ball) Alisher Navoiyning ushbu ruboiysidan olgan xulosalaringizni bugungi kun bilan bog‘lab, hayotiy misollar asosida (60 – 80 ta so‘z) ifodalang.

Johilki, hasad bo‘lg‘ay aning jahlig‘a zam,

Nur el ko‘zidin anglasa o‘z ko‘zida kam.

Ko‘zlarni olishmoqqa chekib tig‘i sitam,

El ko‘zini ham o‘ygay-u, o‘z ko‘zini ham.

Javob:

6. (M – 40 ball) Alisher Navoiyning ushbu ruboiysidan olgan xulosalaringizni bugungi kun bilan bog‘lab, hayotiy misollar asosida (60 – 80 ta so‘z) ifodalang.

Farzand ato qullug‘in chu odat qilg‘ay,

Ul odat birla kasbi saodat qilg‘ay.

Har kimki atog‘a ko‘p rioyat qilg‘ay,

O‘g‘lidin bu ish anga siroyat qilg‘ay.

